

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 12/2 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамият.

## **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фариди Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li*  
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....217-223

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna*  
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI .....224-228

*Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li*  
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI  
TATBIQ ETISH METODIKASI .....229-233

*Pirimova Nargiza Adilovna*  
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING  
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....234-239

*Tangirqulov Elmurod Aliyarovich*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK  
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS  
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....240-244

*Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li*  
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI  
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....245-258

*Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi*  
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM  
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR  
TUSHUNCHASI .....259-265

*Valieva Xolida*  
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI .....266-271

*Djumayeva Dildora Isroilovna*  
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING  
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....272-277

*Davlatova Nilufar Vosiljonovna*  
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING  
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....278-285

*Mamaraimova Zebo Shafokatovna*  
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK  
TAMOYILLARI .....286-290

*Turayev Yolqin Sherzod o'g'li*  
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI  
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....291-295

*Abdurasulova Shoirra Kushakovna*  
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI  
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....296-305

*Sottarov Abduvali Umirqulovich*  
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI  
SIFATIDA .....306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

*13.00.00–Педагогика фанлари*

**Xalikov Faroxidin**

Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

### **TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabalarning ta'limdagi yutuqlarini baholashda ko'plab omillarni hisobga olish va ijtimoiy-pedagogik muhit va shart-sharoitlarni ham hisobga olish talab etiladi. Bugungi kunda pedagog-o'qituvchilarning pedagogik testlarni ishlab chiqish bo'yicha o'z qarashlari va mulohazalari mavjuddir. Shuning uchun test topshiriqlarini ishlab chiqish bo'yicha alohida darsliklar, ilmiy maqola mualliflari tomonidan taklif qilinayotgan yondashuvlar, talab va takliflarni ham e'tiborga ekanligi to'g'risidagi fikr-mulohazalar bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy jamiyat, mustaqil ta'lim, zamonaviy dunyoqarash, ijtimoiy zarurat, raqamli iqtisodiyot, baholash jarayoni, innovatsion va raqamli, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, ilmiy-metodik.

**Khalikov Farokhidin**

Independent researcher of Andijan State University

### **IN THE EDUCATIONAL SYSTEM THE EFFECTIVENESS OF IMPROVING THE THEORETICAL BASIS OF USING TESTOLOGY**

**Annotation.** In this article, it is necessary to take into account many factors and take into account the socio-pedagogical environment and conditions when evaluating the educational achievements of students. Today, the need to modernize pedagogical measures and introduce international programs in education is increasing. The main goal of international assessment programs is to provide feedback on how students apply the knowledge they learn at school in everyday life.

**Key words:** modern society, independent education, modern worldview, social necessity, digital economy, evaluation process, innovative and digital, market economy, Education and training, scientific and methodical.

**Халиков Фароҳидин**

Независимый исследователь Андижанского  
государственного университета

### **В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕСТОЛОГИИ**

**Аннотация.** В данной статье необходимо учитывать множество факторов и учитывать социально-педагогическую среду и условия при оценке учебных достижений учащихся. Сегодня возрастает необходимость модернизации педагогических мероприятий и внедрения международных программ в образовании. Основная цель международных программ оценки – предоставить обратную связь о том, как учащиеся применяют знания, полученные в школе, в повседневной жизни.

**Ключевые слова:** современное общество, независимое образование, современное мировоззрение, социальная необходимость, цифровая экономика, процесс оценки, инновационное и цифровое, рыночная экономика, Образование и обучение, научно-методическое.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N52>

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimining har bir bosqichida ta'limni, bilimni baholash, tekshirishning zamonaviy yo'nalishlarini olib kirish, bu boradagi yondashuvlarni o'zgartirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Yangicha yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan test topshiriqlari, baholash mezonlari va o'lchovlar talabalarda zamon talablariga mos bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, muammolarni o'quv jarayonida topshiriqlar sifatida joriy qilinishi ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Shu ma'noda uzluksiz ta'limning har bir bosqichida pedagogik baholash tizimini takomillashtirish, bilim va ko'nikmalarni o'lchashning yangicha birliklarini yaratish, yangicha yondashuvlarni olib kirish vazifalari ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Talabalarga ko'p holatlarda to'liq, kompleks topshiriq ustida emas, balki shu kompleks topshiriqning bo'laklari yoki «qism topshiriqlari» beriladi. O'qituvchi topshiriqlarni ishlab chiqishda yoki tatbiq etishda baholash me'yorlarini ishlab chiqadi. Baholash jarayonining ko'pligi va doimiyligi o'qituvchi uchun ham talaba uchun ham bosim sifatida qarash mumkin. Topshiriqlar ham ko'p holatlarda aynan baholash funksiyasi uchungina xizmat qiladi. O'quv topshiriqlari talabalarning o'quv mashg'ulotida o'rgangan bilimlarini mashq qilish, bilimlarni turli holatlarda va shakllarda qo'llash, sinab ko'rish uchun ishlab chiqiladi.

Pedagogikaga oid so'nggi ilmiy-tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, oxirgi vaqtlarda, ayniqsa turli xalqaro baholash dasturlarining qamrovi kengaygan davrda, o'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlarga e'tibor kuchaygan. Shuning uchun topshiriqlar o'qitish va o'qish jarayoni dasturiga oid ilmiy izlanishlarning asosiy elementi bo'lib qolmoqda. Jumladan, topshiriqlarning fanlar didaktikasiga mos ravishda sifatli ishlab chiqish, topshiriqlar ishlab chiqish bosqichlarining shakllanishi, o'qituvchilar malakasini oshirishda topshiriqlar ishlab chiqishga oid mavzularning muhokama qilinishi, sinov va talabalarning savodxonligini tashxis qilish topshiriqlarini rivojlantirishning ahamiyati amaliyotda va ilmiy dasturlarda ortib bormoqda.

Pedagogik test topshiriqlarini o'quv jarayoniga keng tatbiq qilish va shu orqali talabalarning asosiy tayanch kompetensiyalarini shakllantirish — ta'lim strategiyamizdan biri hisoblanib, topshiriqlar yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya (литература и методология /Methods).** Bugungi kunda pedagogik test topshiriqlari va o'quv topshiriqlarini takomillashtirish, sinaluvchilarning baholashning yangicha mezonlarini ishlab chiqish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda ko'plab pedagogik izlanishlarning dasturiy obyektiga aylanib bormoqda. Bugun rivojlangan mamlakatlarda pedagogik test topshiriqlari, o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishda «topshiriqlar ishlab chiqish» an'anasini yuzaga keldi.

«Topshiriqlar an'anasi» tushunchasi deganda o'quv mashg'ulotida topshiriqlarni maqsadli va maqbul ravishda qo'llash tushuniladi.[3] C.Aufshnayter fikricha, «topshiriqlarning o'quv mashg'ulotida tizimli qo'llash optimal o'quv jarayoniga hal qiluvchi ta'sir» ga ega.

O'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar bo'yicha jahon tajribasi tadqiq qilinar ekan, amerikalik olim R.Xavigxurstning "development task" ya'ni rivojlantirish topshiriqlari tamoyili muhim ahamiyatga egadir. R.Xavigxurst "development task" atamasini quyidagicha ta'riflaydi: "rivojlantirish topshiriqlari hayotning har bir qismida bajariluvchi topshiriqlar bo'lib, shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi va erkin yashashini ta'minlaydi".[4]

Olim mazkur rivojlantirish topshiriqlarining uchta komponentini ko'rsatib o'tadi: fiziologik yetilganlik, madaniy bosim (jamiyatdagi talablar) va shaxsiy maqsadlar, qadriyatlarning shakllanishi hisoblanadi. Zamonaviy fanlarda mazkur manbalar shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish me'yorlari va shaxsiy maqsadlarning rivojlanishi deb ham tavsiflanadi.

Rivojlanish psixologiyasida mazkur komponentlar shaxsning atrof-muhit, jamiyat bilan aloqasi va shu orqali shaxsning rivojlanishida faol rolni bajaradi. Olim «rivojlanish» atamasiga ta'rif berar ekan, rivojlanish «yashab o'tgan hayotining natijasi, shu bilan birga kelajak vazifalarini qay darajada qabul qila olishi ko'nikmasi» deb ta'riflaydi. Kelgusi hayotiy, mehnat va shaxsiy faoliyatidagi vazifalarni qabul qilish, shu vazifalarni bajarish uchun zaruriy bilim va ko'nikmalarni egallash va qabul qilish ko'nikmasini «insoniyat rivojlanishining motori» deb ta'riflaydi. Rivojlanish har doim oldingi hayot bosqichidagi vazifalarning mukammal bajarilishi bilan ta'minlanadi.

Sh.Sharipovning fikricha, talabaning «individual rivojlanishining muhim omillaridan biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlari» bo'lib, «har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga va o'zgarishlariga xos tarzda shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati va bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi». Talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirishda «barcha sohalaridagi faoliyat ko'rsatkichlarini umumiy majmua sifatida qarab, talab etilayotgan xususiyatlar salmog'ini oshirishga asosiy e'tiborni qaratish lozim».[5]

Rivojlantirish topshiriqlarining muhim jihati ularning mazmunini talabalarning yoshga nisbatan rivojlanishini hisobga olgan holda belgilashdan iborat. Asosiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqishda talabaning ijtimoiy-psixologik, fiziologik xususiyatlari fanga bog'liq ravishda berilishini hisobga olish kerak. Topshiriqlar talabalarga jamiyatda, kundalik hayotda, kasbiy hayotda turli vazifalar, topshiriqlar, rollarni egallashni va shu orqali mas'uliyatni va javobgarlikni his etish, fanlararo bog'liqlik va mustaqil o'rganishning ahamiyatini anglash imkonini beradi va J.Usarov fikricha bu topshiriqlar darajalariga ko'ra quyidagi uch guruhga bo'linadi:

- qayta tiklash darajasi (standart vaziyatlarda tayanch bilimlarni qo'llash);
- aloqalarni o'rnatish darajasi (turli mavzulardagi materiallarni integratsiya qilish, grafik va jadvallar orqali berilgan axborotlarni interpretatsiya qilish);
- muhokama qilish darajasi (umumlashtirish, nostandart muammolarni yechish, xulosalarni asoslash)[6].

Pedagogik test topshiriqlarini ishlab chiqishda va undan o'quv jarayonida foydalanishdan avval baholashdagi asosiy tayanch kompetensiyalarning tavsifiga e'tibor qaratish lozim. Misol tariqasida xalqaro baholash dasturiga ko'ra, tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik, «tabiiy fanlarga oid bilimlarni amalda qo'llay olish, tabiiy fanlarning muammolarini tushunish, ilmiy manbalardan foydalangan holda xulosalar ishlab chiqish, tabiatga oid va inson omili bilan sodir bo'ladigan tabiatdagi o'zgarishlar bo'yicha qarorlarni tushunish» deya tavsiflanganini aytishimiz mumkin. Agar ushbu tavsifni tahlil qilsak, tabiiy fanlarga oid savodxonlik bilvosita kundalik hayot, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga bog'liq tarzda tekshirilmoqda. Talabadan mustaqil fikr, mustaqil qaror qabul qilish va o'z natijalariga baho berish talab etilmoqda.

Talabalarda fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotga tatbiq qilish orqali ularning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanishda fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, ma'naviy va madaniy merosni avaylab asrash, ularda umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalashdan iborat.

Tabiiy yo'nalishdagi fanlarda topshiriqlar aksariyat hollarda o'quv mashg'ulotlarining takrorlash va imtihon bosqichlarida ishlatiladi.[7] Topshiriqlar ko'p hollarda asosan talabalarni baholash uchun qo'llaniladi. Baholash esa o'qituvchi uchun talabalarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita sifatida ko'riladi. Shu bilan birga, R.Duit tadqiqotlarida fizika darsliklaridagi topshiriqlarni tahlil qilib chiqilgan va olim quyidagi xulosaga kelgan: «Fizika darsligidagi topshiriqlar takrorlanuvchi formal topshiriqlardan iborat va bu 90%ni tashkil etadi. Kundalik hayotga oid topshiriqlar esa kamdan-kam holatlarda uchraydi. Bunday topshiriqlar odatda talabalarning kundalik hayotni kuzatishi, o'quv mashg'ulotlarida o'rganayotgan bilimlari bilan bog'lashi va ularning muammolarni hal qilish kompetensiyasining rivojlanishiga yordam beradi. Bir qancha javoblari mavjud topshiriqlar esa fizika darsliklarida deyarli uchramaydi». Ushbu tahlil asosida quyidagicha xulosa qilish mumkin. Fizika darsida ma'lum topshiriqlarning yechish algoritmi bilan shug'ullanishi va mazkur algoritmnı yodlagan holda takrorlash maqsad qilingan. Ba'zi holatlarda topshiriqlarda murakkablik darajasi baland hisoblanadi va bu turdagi topshiriqlarda talabalardan formula yoki tenglamani yechish yoki o'zgartirish talab etiladi, xolos. Shu turdagi topshiriqlarni ishlay olishlari talabalar fanning mazmunini to'laqonli tushunganligini anglatmaydi. Shuning hisobiga talabalarning fanga bo'lgan qiziqishi kamayib boradi. Talabalar uchun fanlar abstrakt, hayotda kam uchraydigan fan sifatida ko'riladi. Talabalar uchun berilgan topshiriqlar o'zlari ko'rgan, bilgan, amalda uchraydigan ma'lumotlarga bog'lansa, ularda fanning muhimligini tushunishga, uni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirib boradi.

N.Sheker va J.Gerdes fikricha, «sxemaga solingan doimiy takrorlanuvchi topshiriqlar o'rganilgan bilimning chegaralangan miqdorda qo'llash imkoniyatini beradi».[8] Shuningdek, bu tadqiqotchilar dasturlar natijalari bo'yicha quyidagi xulosani bayon etadilar: Talabalar topshiriqlarni yechishni o'rganishadi, ammo muammolarni hal etishni esa kamdan-kam holda o'rganishadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlardan kelib chiqsak, o'quv mashg'ulotlarida beriladigan test topshiriqlarining funksiyasi talabalarning muammoli vaziyatlarni hal qilishga bo'lgan munosabatlarini o'zgarishini taqozo etadi.

**Natijalar.** Shuningdek, o'qituvchi tomonidan faqat topshiriqning to'g'ri yechimiga yo'naltirish emas, balki shu topshiriq orqali talabaning fikr yuritishi, topshiriqqa o'zgacha yondashishni ta'minlashi kerak bo'lgan topshiriqlar ishlab chiqilishi va qo'llanilishi kerak.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ma'lum topshiriqni bajara olmayotgan talaba uni namunaviy topshiriqlar yordamida yechishga harakat qiladi. Bu holdagi topshiriqlar o'quv jarayonida, ayniqsa matematika darsida, formulalar ustida ishlash yoki tenglamalarni yechishda ishlatilishi mumkin. Tabiiy yo'nalishdagi fanlarda esa topshiriqlar ko'proq ma'lumotlarni qamrab olishi, ko'p miqdordagi bu ma'lumotlar orasidan zaruriy ma'lumotlarni ajratib olishi va shundan tegishli formula yordamida topshiriqni bajarish nazarda tutilishi kerak bo'ladi. Bu esa talabalarda mustaqil izlanish ko'nikmasini rivojlantiradi.

«Topshiriqlar an'anasi»ni rivojlanishiga yana bir muhim omil bu talabalarning mustaqil tushuntirib berish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ochiq test topshiriqlarida talabalarga taqdim qilinadigan ma'lumotlar tayyor holatda emas, balki mustaqil ravishda qidirish, takrorlash

va boshqa topshiriqlar bilan taqqoslash orqali ma'lumotlar topishi nazarda tutilishi kerak. Topshiriqlar o'quv jarayonining davom etishiga qarab murakkablashib borishi lozim.

X.Gudjonsning fikricha, «murakkab bo'lib boruvchi topshiriqlarni bajarish orqali bilimlar yangidan tizimlashib boradi. Amaliyotda qo'llanilishiga oid topshiriqlarni bajarish orqali esa boshqa bilimlar bilan mujassamlashib, tayanch bilimlarga bog'lanib boradi». Shuningdek, o'qituvchi yangi mavzuni tushuntirish va talabalarga shu mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda mustaqil topshiriq namunalaridan yechish va o'z yechimini taqdimot qilish imkoniyatini berishi lozim. Mazkur holatda o'qituvchi talabaning «hozirgi holati» va «potensial holati»ga baho beradi. O'qituvchi, shu bilan bir qatorda, mazkur mavzuni tushuntirishda uslubiy jihatlarga e'tibor qaratadi, talabalarining «hozirgi holati»ni hisobga olgan holda mavzuning eng muhim qismlarini atroflicha tushuntirishga harakat qiladi.[9] Yo'l qo'yilgan xatolar bilan samarali ishlash topshiriqlar ishlab chiqishda kam e'tibor qaratiladigan muhim jihatlardan biri hisoblanadi. Xato yechimlar esa topshiriqlarni uzluksiz va davomiy xatolarni hisobga olgan holda yechishga asosiy turtki bo'ladi.

Talabalarining topshiriqni yechishda xato qilishidan qo'rqishga emas, balki xatolar orqali yakuniy to'g'ri yechimga kelishga rag'batlantirish kerak. P.Xeuslur va G.Lind o'zining ilmiy dasturida «kimki qanday xato kelib chiqishini bilsa, to'g'ri yechim qanday bo'lishini biladi», deb mazkur holatni bayon etganlar. Pedagogik nuqtai nazardan xatolar yo'q qilinishi zarur bo'lgan yoki yo'l qo'yib bo'lmas yechim sifatida qabul qilinmaydi, balki xatolardan va xatolar orqali o'rganish mumkin, deb qarash kerak.

Fan didaktikasi nuqtai nazaridan esa xatolarni shu xatoga mos keluvchi topshiriqlar asosida tushuntirish tavsiya etiladi. Misol uchun, ma'lum guruhda ishlangan yoki alohida talaba ishlagan topshiriq maqsadli ravishda xato ishlanib, o'quv mashg'ulotida mazkur xato yechim tanqidiy nuqtai nazardan muhokama qilinadi. Talabalarining xatolarni aniqlash va nima uchun xato ekanligi bo'yicha fikrlarini shakllantirish va tizimli rivojlantirib borish o'qituvchining vazifalaridan biridir. Bu orqali talabalarining tanqidiy fikrlash va konstruktiv yechim topish kompetensiyalari shakllanib boradi.

Pedagogik test topshiriqlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda keyingi yillarda ko'p yechimli topshiriqlar ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Topshiriqni yechishni bitta usul bilan tushuntirish oddiy va nafis yo'ldir. Bu esa o'qituvchi uchun ham kam vaqt talab qiluvchi yo'l hisoblanadi. Talabalarining ma'lum bir topshiriq bo'yicha chegaralangan miqdordagi vositalar, resurslar yoki ma'lumotlar mavjud bo'lganda muqobil yechimlar topish yo'llarini topish ko'nikmasini shakllantirmaydi.

Talabalarining tor fikrlashga va birgina yechim orqali topshiriqlarni yechish va boshqa yechim yo'llarini qidirmaslikka undaydi. Shuningdek, keyingi vaqtda o'quv jarayonida konstruksion topshiriqlarni qo'llash ham ommalashib bormoqda. Ushbu topshiriqlar orqali talabalar ma'lum mahsulot, buyum yoki konstruksiyani loyihalab chiqadi. Talabalar ixtiyoriga chegaralangan vositalar taqdim etiladi.

Zamonaviy ta'limda bilim va ko'nikmalarni o'stirishda tekshiruvchi test topshiriqlarining o'rni ortib bormoqda. Asosiy tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda tekshirish topshiriqlari muhim ahamiyatga ega. Nemis olimi R.Bremer tomonidan ishlab chiqilgan «Evaluationsaufgaben» (ingliz tilida «evaluation task», o'zbek tilida «tekshirish topshiriqlari») bo'yicha bir qator dasturlar olib borilgan.

R.Bremer tekshirish topshiriqlari haqida o'z fikrlarini bildirar ekan, uning mazmun-mohiyatini oddiy misol yordamida tushuntirib o'tadi. Bolalikdan boshlab hamma bolalar ikki g'ildirakli velosipedni haydashni o'rganadi. O'rganish jarayoni ham uzoq muddat davom etmaydi va bir hafta, 10 kun muddat ichida velosipedni mustaqil boshqarish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Agar velosiped boshqarishni bolaga fan nuqtai nazaridan tushuntirilsa, fizika qonunlarini tushuntirish zarur bo'ladi. Talabalarining egallashi lozim bo'lgan ayrim kompetensiyalar har doim ham faqat nazariy o'rganish bilan emas, balki amaliy bajarish, sinab ko'rish orqali ham shakllanishi va keyinchalik nazariy jihatdan to'ldirilishi mumkin. Avval nazariy o'rganib, keyin amaliy bajarish tamoyiliga asoslangan o'qitish konsepsiyalari ham har doim samarali hisoblanmaydi.

Tekshiruvchi test topshiriqlari yordamida ta'lim tizimining natijalarini baholash maqsad qilingan. R.Bremerning fikricha baholash topshirig'i bir mutaxassislik topshirig'i bo'lib, o'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlardan farqli ravishda tekshirish topshiriqlarida turli yechimlar uchun katta imkoniyatlar beriladi. Mazkur yechimlar o'quv jarayonida o'rganilgan, kundalik hayotda kuzatilgan yoki mantiqan izlab topilgan bo'lishi mumkin. Har bir talabaning yechimlaridan talabalarining asosiy va fanga oid kompetensiyalarining qay darajada shakllanganligini tekshirish maqsadida foydalaniladi.

**Muhokama.** Tekshiruvchi test topshiriqlari ta'lim tizimining qaysi konsepsiya asosida tashkil etilganligini va uning samaradorligini baholaydi. Baholash dasturlarida talabaning dastur vaqtidagi savodxonligi tekshiriladi. Tekshirish topshiriqlari asosan o'quv yilining boshlanishida va oxirida yoki bir chorakning boshlanishi va oxirida o'tkaziladi. Aynan bir topshiriq ikki marta qo'llaniladi. Tekshirish topshiriqlari psixometrik o'lchash vazifasini bajarmaydi, ya'ni aynan bir talabaning o'quv yili boshlanishi va yakunida, bir chorakning boshlanishi, yakunida asosiy tayanch va fanga oid kompetensiyasi o'lchanmaydi, balki sinfdagi barcha talabalarining umumiy kompetensiyasi umumlashtiriladi. Talabalar mazkur topshiriqni yechish orqali mazkur o'quv yilida nimalarni o'rganish mumkinligi, qanday kompetensiyalarga ega bo'lishi va o'zining maqsadlarini qo'yishga o'rganadi. Bu topshiriqlar talabalarining rivojlantirish zarur bo'lgan asosiy tayanch va fanga oid kompetensiyalarini belgilab olishda katta yordam bo'ladi. Shu orqali o'qituvchi dars mashg'ulotlarini rejalashtirish bo'yicha muhim ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Tekshiruvchi test topshiriqlarini ishlab chiqishda aniq voqelik, kundalik hayotda kuzatiladigan topshiriqlar tanlanishi lozim. Topshiriq ham aslida talabalarining topshiriqqa yondashuvi, mavjud bilimlarining holati, yo'l qo'yilayotgan xatolarni konseptual tahlil qilish va shular asosida o'qituvchi uchun o'quv yili davomida qaysi metodlar bilan qaysi mavzuni qanday tashkil etish uchun to'liq ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi. O'quv yili so'nggida ham mazkur topshiriq yana bir bor beriladi va umumiy natija tahlil qilinadi. Baholash topshiriqlari psixometrik nuqtai nazaridan o'lchanmaydi, ya'ni har bir talabaning alohida natijasi e'tiborga olinmaydi, balki butun bir sinf egallagan kompetensiyalarining «mavjud holati» va «zaruriy holati» aniqlashtiriladi.

Tekshiruvchi test topshiriqlari tarixan R.Xavigxurstning rivojlanish topshiriqlari bilan bog'liq. R.Xavigxurstning fikricha «rivojlanish topshiriqlari bu shaxsning shaxsiy ehtiyojlari va jamiyat talablari o'rtasida bo'lib, faol ta'lim orqali jamiyat ijtimoiy hayotida faol ishtirok etishi» deb tushuniladi. Shuningdek, bugungi ta'limda ochiq test topshiriqlarining o'rne ham yuqori hisoblanadi. O'quv jarayonida o'qituvchining har bir talaba bilan individual savol-javob qilishi vaqt nuqtai nazaridan amalga oshirib bo'lmaydigan jarayon hisoblanadi. Bu holda ma'lum bir

sxemaga tushirilgan topshiriqlar o'qituvchi uchun qulay vosita hisoblanadi. Ochiq topshiriqlar talabaning bir o'zi, ikki kishi bo'lib yohud guruhlarda ishlashi uchun qo'l keladi. Bu turdagi topshiriqlar talabaga bir qancha usullar bilan ishlash imkoniyatini beradi. Topshiriqlar yechimi qolipga solingan, oldindan o'ylab qo'yilgan javoblar sxemasiga tushmaydi va talaba topshiriq jarayonida o'zida qo'shimcha savollar, fikrlar va yangi bilimlarni izlab topishga intiladi. Topshiriq nafaqat dars mashg'ulotida, balki darsdan keyingi vaqtlarda ham talabalar muhokamasiga sabab bo'ladi va ularning xotirasida qoladi.

Ochiq test topshiriqlarining asosiy maqsadi talabalarga topshiriqlarni bajarish jarayonida erkinlik berish, talabaning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Ochiq test topshiriqlari yordamida talabalarda zaruriy bilimlarini qo'llash va yetarli o'ylash uchun vaqt bo'ladi. Matematika va tabiiy fanlarda bu kabi topshiriqlarni bajarish qo'l keladi. Xalqaro baholash dasturlarida qo'llaniladigan topshiriqlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ochiq test topshiriqlari keng miqyosda qo'llaniladi. Ochiq test topshiriqlari talabalardan o'z fikrini iboralarda, to'liq gap shaklida tuzishni talab qiladi. Ochiq test topshiriqlari «o'qish jarayoni ma'lum muammoli vaziyatlarni bajarish jarayonlarida sodir bo'ladi» tavsiyasiga misol bo'ladi va topshiriqlarning eng muhim jihati «talabalar qiziqqan holda va motivatsiya bilan ochiq test topshiriqlarini kichik guruhlarda bajarish jarayonida o'zining yechimlarini boshqa guruhdoshlariga taqdim etadi va boshqalarning yechimlarini ham eshitadi. Bu orqali talabaning ijtimoiy, kommunikativ kompetensiyalari shakllanib boradi».

Ochiq test topshiriqlarini o'quv jarayonida qo'llashda va sifatli tashkil etishda o'qituvchidan oldindan tayyorgarlik ko'rilishi, yetarli zaruriy vositalar bo'lishi, o'quv soati reglamentini to'g'ri rejalashtirishi va ehtimoliy konflikt holatlarini hisobga olishi talab etiladi.

Ochiq test topshiriqlari muammoni yuqori darajada yechish bilan bevosita bog'liq. Talabalarga topshiriqlar qiyinlik va murakkablik qilmaslik uchun zaruriy bilimlar oldindan berilgan bo'lishi lozim. Shuning bilan birgalikda o'quv jarayonida metodlar almashinuvi amalga oshadi, ya'ni ma'ruza, so'ng so'rash va rivojlantirib turuvchi dars suhbatlari va ochiq topshiriq yordamida mustaqil shug'ullanish.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi uchun topshiriqning yechimidan ko'ra talabalarining mazkur topshiriqni yechishga bo'lgan yondashuvi muhim hisoblanishi va bu talabaning baholanishiga asos bo'lishi, rag'batlantirilishi va o'qituvchi tomonidan metodik tavsiyalar bilan to'ldirib borilishi zarur. Shu nuqtai nazardan amaldagi baholash tizimi bilan davlat ta'lim standartlarining kompetensiyaviy yondashuvi bir-birini mazmunan inkor qilishini ta'kidlab o'tish lozim. Agar o'quv jarayoni kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan va shu asosda o'quv jarayoni tashkil etilar ekan, baholash tizimi ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi lozim.

Talabalarga yuqori murakkablikdagi ochiq topshiriqlar berilmasligi kerak. Ochiq topshiriqlar o'z navbatida «tadqiq qilib o'rganish»ni qo'llab-quvvatlaydi va talabalarining tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Ochiq topshiriqlar sinfdagi o'rtacha o'zlashtirish darajasiga mos kelishi lozim. Ochiq test topshiriqlari bajarish vaqtida o'qituvchining talabalar savollariga javob berishi, yordam berishi maqsadga muvofiq emas.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Kulgemeyer C. PISA-Aufgaben im Vergleich. Strukturanalyse der Naturwissenschaftsitems aus den PISADurchläufen 2000 bis 2006 // Books on Demand GmbH, 2009. – p. 2.
2. Aufschnaiter C. Prozessbasierte Detailanalysen der Bildungsqualität von Physik-Unterricht: Eine explorative Studie // Zeitschrift für Didaktik der Naturwissenschaften; Jg. 9, 2003. – p. 105.
3. Aufschnaiter C. Prozessbasierte Detailanalysen der Bildungsqualität von Physik-Unterricht: Eine explorative Studie // Zeitschrift für Didaktik der Naturwissenschaften; Jg. 9, 2003. – p. 105.
4. Havighurst R. Human Development and Education // David McKay, New York 1953. – p. 12.
5. Havighurst R. Human Development and Education // David McKay, New York 1953. – p. 12.
6. Ўша манба. – p. 14.
7. Воробьева С.В. Современные средства оценивания результатов обучения в общеобразовательной школе. Изд. 2-е пер. и доп. – Москва: Юрайт. 2019. –С. 396.
8. Аванесов В. С. Теоретические основы разработки заданий в тестовой форме: Пособие для профессорско-преподавательского состава высшей школы. М.: МГТА 1995. – 95 с.
9. Баратов А.А. Таълим сифатини баҳолашда асосий педагогик ўлчов воситаси бўлган тест топшириқларининг назарий асослари ҳақида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Давлат тест маркази, “Ахборотнома” илмий-услубий журнали, Тошкент ш., 2018 й. №3, 4-9 бет.
10. Қосимов С., Сапаев М., Юсупов А. Европа тажрибалари асосида Ўзбекистон олий таълим муассасалари рейтинг тизимини такомиллаштириш. Урганч, 2009.-41 б.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/2 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).